

Boshlang'ich Sinf O'quvchilarining Matematik Tafakkurini Shakllantirish

Diloromxon Yusupova Sabirdjanovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatini shakllantirishda matematika fanini o'qitishning ro'li va ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish boshqa har qanday o'quv predmetini o'qitish kabi ta'lif, tarbiya va amaliy fazilatlarini hal qilish kerak ekanligi haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lif tizimi, qobiliyat, omil, ta'lif-tarbiya, malaka va ko'nikmalar, pedagogik texnologiyalar, samaradorligi, interfaol usullar, barkamol avlod, axborot oqimi, ilg'or pedagogik texnologiya.

Barchaga ma'lumki, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman mакtab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishslashda o'rta maktablarda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiyl masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'lifning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. O'rta matematika dasturiga taalluqli ko'pgina masalalar boshlang'ich sinflardayoq ko'pgina shu darajada mustahkam o'zlashtirilishi kerak ki, bunda ular o'quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin, boshqa masalalar esa o'qitilishning dastlabki bosqichida keyingi sinflarda mufassal qarab chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadidagina kiritiladi, yoki biror malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiliyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun kiritiladi. Maktabning boshlang'ich sinflarda bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytib o'tilgan mulohazalarini hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasida shakllangan uzluksiz ta'lif tizimi barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lif tizimi doirasida faoliyat olib boruvchi ta'lif muassasalari ilg'or, demokratik hamda insonparvar g'oyalarga tayangan, hamda yangicha mazmunga ega bulgan ta'lif jarayonini tashkil etishda muhim o'rinn tutadi. Uzluksiz ta'lif tizimini shakllantirish, shuningdek, tag'lim mazmunini yangilash ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh g'oyasi sanaladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida uzluksiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida ta'lif jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan yangi pedagogik texnologiyalarni umumiyl o'rta ta'lif kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy o'quv yurti faoliyatlariga tatbiq etish borasida amaliy harakatlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. Ushbu nazariy xulosaning amaliy tadbiqi sifatida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ta'lif jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish borasida umumiyl o'rta ta'lif tizimida ham izlanisharning tashkil etilayotganligi alohida e'tiborga molikdir. Zero, oliy ta'lif tizimi ijtimoiy zaruriyat sifatida namoyon bo'layotgan malakali mutaxassisni tarbiyalash jarayonida o'ziga xos o'rinn tutadi. Umumiyl o'rta ta'lif kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy o'quv yurtlarida turli o'nalishlarda malakali kadrlarni tayyorlash davrning o'ta muhim talabi bo'lib, bu borada barcha imkoniyatlarni ishga solish alohida dolzarblik kasb etadi. Oliy ta'lif mazmunini yangilash jarayonida bo'lajak mutaxassislarning umumiyl mehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash masalasining samarali hal etilishiga alohida ahamiyat qaratilishi zarur.

¹ Andijon davlat universiteti Umumiyl pedagogia kafedrasи o'qituvchisi



Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir! Shu sababli Prezidentimiz Islom Karimov butun mamlakatimiz diqqat e'tiborini barkamol avlod tarbiyasiga qaratmoqda.

Ta'lism – tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Bu haqda Prezidenttimizning quyidagi so'zlari ibratlidir:

"Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lism va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota –ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lism-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lism va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi" Ta'lism jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ikkinchi bosqich vazifalaridan biridir. Ta'lism - kelajakdagagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifatida bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talablariga to'la javob bera olishi kerak Axborot oqimi keskin ortgan,turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan,yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan , muloqotga erkin kirsha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lism-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'linda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir. Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinf matematik darslarida ilg'or pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o'tilsa, o'qitish jarayoni takomillashadi. Kurs ishi dolzarbligi ana shu bilan asoslanadi.

Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materiallarini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiyl prinsip va qonuniyatlarni tushuntirishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushtirishni nazarda tutadi. Bu asosan amallarning xossalarni, ular asosidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllanayotgan amaliy o'quv va ko'nikmalarining asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqlidir. O'quvchilarda egallangan bilim, o'quv va malakalarni turli hil shartlarda qo'llanishga o'rgatishni o'quvchilarning maxsus masalasi sifatida qarash mumkin. Shu bilan birga bilimlarni qo'llanish ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligi oshirishning muhim vositalaridan biridir. Bilim, o'quv malakalarning to'la qiymatli o'zlashtirilishiga ularning o'zgaruvchili sharoitlarda mustaqil qo'llanishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. Bolalarning mактабда boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan ko'p darajada aynan ana shu asosida bartaraf tamanlama hilimlara moveue a'tihar harmaga va bolalarni bir hil turdag'i savollarga, topshiriqlarga ifodalarga, masalalarga o'rgatib qo'ysa, bu 5- sinfda fanlar bo'yicha o'qitishga o'tishdagi murakkablikni yanada oshiradi. Bu masala bolalar bilim qobiliyatlarni o'stirishning ancha umumiyl masalasi bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfdanoq kuzatish va taqqoslash, solishtirilayotgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qilayotgan belgilarni ajaratish, tahlil, sintez va umumlashtirish, abstarksiyalash, aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko'p ish qilingan bo'lishi kerak. O'quvchilar matematik fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq. qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Matematika o'qitishning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga hisoblash, o'lchash va grafik ko'nikmalarining ma'lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo'lib, ko'p marta takrorlash hisobiga avtomatizmgacha yetkazildi.

Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtida boshlang'ich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas. O'quvchilar imkonimizga yetkazildi.



mustaqil. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtida boshlang'ich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas. O'quvchilar imkonи boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishda kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o'rganishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishni o'rganishlari kerak. Boshlang'ich sinf matematika programmasi xuddi shunga yo'naltiriladi, unda o'qitishda nazariylik sa'viyasini oshishida ochiq-oydin ifodalangan, nazariyaning amliyot bilan uzviy bog'langanligi amaliy bilan uzviy bog'langanligi seziladi. Matematikani o'qitishda nazariy tafakkurni oshirish talabi nimani bildirishini ayoniyo ko'rsatish uchun bir misol keltiramiz 1-sinfda ilgari ishlatilgan dasturga ko'ra bиринчи о'нлик sonlarni ketma-ket o'rganiladi. Har bir sonni qarashda masalan 2 sonini hosil qilishda I'm I ga qo'shish kerak ekanini tushuntiriladi. Bu faktlarning hammasi har xil darslarda bir binga bog'lanmagan hollarda qaraladi.

XULOSA:

Har qanday matematik o'yinlar qandaydir matematik nazariyaga asoslanadi. Ular o'quvchilarning abstrakt tushunchalarini o'rganishdagi mashg'ulotda bolalarning tafakkurini rivojlantirib, faolligini oshiradi. Chunki ularda og'zaki hisoblashning tezligi konkurs hissining o`tkirligi, maqsadga eng to'g'ri yo'l bilan yetish istagi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Matematikada o'yin fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu esa doimo jiddiy shug'ullanishiga extiyoj tug'diradi. Paskal so'z bilan aytganda, matematika shunday jiddiy fandirki, uni sal qiziqarli qilish imkoniyatini qo'lldan bermaslik lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat.T..Fan,2006.
2. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М. педагогика 1999 Barkamol avlod orzusi Tuzuvchilar: Sh.E.Qurbanov va boshqalar. Т.: Sharq. 1999.
3. Kaldibekova A.S.. Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari - T TDPU 2006. 25. Leader shipguide. Semorleaders, subject leaders and teachers in secondary

